O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Alimova Oydin Baxtiyarovna
O'zbekiston Milliy Universiteti
Davlat va Korporativ strategiyalari mutaxassisligi magistranti
Email: baxtiyarovnaoydin16@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21336722

Annotatsiya: Ushbu taqdiqotda inson kapitalining mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatning chekka hududlarida inson kapitalini barqaror rivojlantirishga ta'sir qilayotgan omillar o'rganilib, tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.
Kalit so'zlar: inson kapitali, iqtisodiy xavfsizlik, barqarorlik, frilanserlik, masofaviy mehnat.

Abstract: This study highlights the importance of human capital in the socio-economic development of the region. It also examines the factors affecting the sustainable development of human capital in remote areas of the country, and provides suggestions and recommendations.
Keywords: human capital, economic security, sustainability, freelancing, remote work.

Kirish: Inson kapitali bugungi kunda jahonda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim strategik resurslaridan biri sifatida ko'rilmoqda va uni rivojlantirish hamda mintaqa miqyosida takomillashtirish masalasiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish nafaqat hududlarni kompleks rivojlantirish strategiyalarida, balki butun davlatning ham asosiy maqsadi sifatida belgilangan. Mamlakatimiz uchun inson kapitalini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik maqsadiga, balki bugungi innovatsion va raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan hamda zamonaviy texnika-texnologiyaga moslashish sharoitida ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanish uchun zarur shartga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, har bir mintaqaning ixtisoslashuvi, o'ziga xos demografik va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqgan holda barqaror inson kapitalini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishni taqazo qiladi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo qilish sharoitida inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "xalq farovonligini oshirish, har bir fuqaroga sifatli ta'lim, tibbiy xizmat va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish orqali jamiyatning intellektual va innovatsion salohiyatini oshirish asosiy maqsad sifatida belgilab berilgan"[1]. "O'zbekiston – 2030 " strategiyasida jami beshta ustuvor yo'nalish va 100 ta maqsaddan iborat bo'lib, unda aholi talablariga va xalqaro standartlarga mos keladigan ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoridan o'rin olish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish kabi inson kapitalining asosiy komponentlarini rivojlantiruvchi taxminan qirqga yaqin maqsadlar ishlab chiqilgan.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

Asosiy qism: Xalqaro raqobat muhitida mamlakat iqtisodiyoti va hududlarni strategik rivojlantirishga faqat innovatsiyalarni jadallashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali erishib bo‘lmaydi, xususan, ularning asosiy manbai hisoblangan insonlar va ularning bilimi, malaka va ko‘nikmalariga investitsiyalar kiritish orqali amalga oshiriladi. Hududlarni kompleks rivojlantirishda inson kapitaliga yo’naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o’sishning eng samarali vositasidir. Bu jarayonda inson kapitali salohiyatini oshirish, xususan, ta’lim, sog’liqni saqlash va mehnat bozori islohotlarini hududiy rivojlanish bilan uyg’un holda amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarning kafolati bo’lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mintaqa iqtisodiyotida inson kapitalining tutgan o’rni tobora oshib bormoqda. Mintaqada inson kapitalining kuchli rivojlanishi – iqtisodiy o’sish, ijtimoiy barqarorlik va aholi turmush faravonligi hamda mehnat bozoridagi muvozanat va bandlik uchun asosiy kafolat hisoblanadi. Mintaqa doirasida inson kapitali sifatini oshirish hamda hududni ijtmoiy - iqtisodiy takomillashtirish uchun inson kapitalini shakllantirishdagi asosiy muammolarni aniqlash lozim. Tahlil natijalariga ko’ra, mamlakatimizning chekka hududlarida inson kapitalini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

- ta’lim tizimidagi innovatsion uzilish;
- raqamli savodxonlik darajasi pastligi;
- chekka hududlarda tibbiy xizmatlarning pastligi;
- aqlli boshlar oqimi;
- ish joyida yetarli o’qitishning yo’qligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqgan holda, ularni yechimi sifatida quyidagi asosiy vazifalar va islohotlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Ta’lim tizimi sifatini oshirish va modernizatsiya qilish:

✓ viloyatning chekka hududlarida davlat-sherikchilik asosida ta’lim muassasalarini ko’paytirish, universitet va texnikumlarning filiallarini ochish hamda masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish;

✓ texnikum va kollejlarda dual ta’lim tizimini takomillashtirish, oliy ta’lim bitiruvchi yoshlarning salohiyati mehnat bozorida talablariga mos bo’lishini ta’minlash;

✓ pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish uchun viloyat miqyosida metodik markazlarni rivojlantirish hamda chekka hududda ishlovchi malakali kadlarga rag’batlantiruvchi dasturlarni kengaytirish.

Sog’liqni saqlash tizimini sifatini oshirish:

✓ tibbiy xizmat ko’rsatish bo’yicha xususiy tadbirkorlikni rag’batlantirish va imtiyozlar yaratish;

✓ raqamli tibbiyot tizimini takomillashtirish.

Inklyuziv mehnat bozorini yaratish va tadbirkorlik subyektlari sonini oshirish:

✓ yuqori malakali mutaxassislar uchun KPI kabi samaradorlik ko’rsatkichlari tizimi asosida rag’batlantiruvchi maosh bilan ta’minlash;

✓ masofaviy ish va frilanserlik, autsorsing, autstaffing kabi zamonaviy mehnatda bandlik ulushini oshirish;

✓ xodimlarni qayta o’qitish, malakasini oshirish va kooperatsiya dasturlari ko’lami va sifatini oshirish.

Innovatsion muhit va raqamli dunyoqarashni rivojlantirish:

✓ mintaqaning barcha hududlarida raqamli ko’nikmalarni rivojlantirish markazlari, IT - parklar tashkil qilish;

✓ agrosanoatda raqamli qishloq xo’jaligi loyihasini takomillashtirish.

Keltirilib o’tilgan strategik vazifalar orqali mamlakatimizning chekka hududlarida zamonaviy ta’lim tizimi, sifatli sog’liqni saqlash xizmatlari, raqamli savodxonlik, mehnatda samarali bandlik kabi imkoniyatlarga erishilib, aholi turmush darajasi rivojlanadi. Buning

natijasida esa viloyat miqyosida inson kapitali sifat darajasi oshishiga hamda hududda barqaror iqtisodiy o’sishga erishiladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda inson kapitali hal qiluvchi rol o’ynaydi. Chunki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda hududlarning raqobatdoshligini ta’minlash faqatgina moddiy resurslar yoki qulay geografik joylashuv bilan cheklanib qolmaydi. Shu boisdan, hudud miqyosida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar nuqtai nazaridan iqtisodiy o'sishga intilishda uning sifat jihatlariga, xususan, inson kapitalining o'sishi va rivojlanishiga yordam beradigan ijtimoiy infratuzilma institutlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.